

ADVOKAT TEKSHIRUVI: HUQUQIY VA TASHKILIY JIHATLAR

Boymurodov Zokirjon Anvar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671341>

Annotatsiya. Ushbu maqolada advokatlik tekshiruvini universal huquqiy himoya vositasi va konstitutsiyaviy malakali yuridik yordam olish huquqini amalga oshirishning asosiy mexanizmi sifatida talqin etuvchi original konsepsiyasi bayon etilgan. Bunda advokat tomonidan ishonch bildiruvchining pozitsiyasini asoslash uchun sudgacha bo'lgan bosqichda dalillarni mustaqil va erkin yig'ish va sudda himoyasi ostidagi shaxs manfaatlarini huquqiy himoya qilishligi yoritilgan.

Kalit so'zlar. advokat tekshiruvi, yuridik yordam, fuqarolarning huquq va erkinliklari, yuridik yordam, jinoyat-protsessual qonunchilik.

Аннотация. В данной статье изложена оригинальная концепция адвокатского расследования как универсального средства правовой защиты и основного механизма реализации конституционного права на получение квалифицированной юридической помощи. Освещается осуществление адвокатом независимого и свободного сбора доказательств на досудебной стадии для обоснования позиции доверителя, а также защита прав и законных интересов лица, находящегося под защитой, в судебном процессе.

Ключевые слова: адвокатское расследование, юридическая помощь, права и свободы граждан, юридическая помощь, уголовно-процессуальное законодательство.

Annotation. This article presents an original concept of legal investigation by a defense attorney as a universal means of legal protection and a key mechanism for the realization of the constitutional right to qualified legal assistance. It highlights the attorney's independent and unrestricted collection of evidence at the pre-trial stage to substantiate the client's position and ensure legal protection of the defendant's rights and interests during court proceedings.

Keywords: legal investigation, legal assistance, citizens' rights and freedoms, legal aid, criminal procedural legislation.

KIRISH.

Yurtimizda inson va fuqaro huquq-erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari orasida malakali yuridik yordam olish huquqi alohida o'rin egallaydi. Bu huquqni amalga oshirish shaxsning huquqiy maqomini tashkil etuvchi boshqa huquq va erkinliklarni himoya qilishga qaratilgan bo'lib, qonun va sud oldida tenglik, aybsizlik prezumpsiyasi, odil sudlov kabi umumhuquqiy tamoyillarni amalga tatbiq etadi. Shuningdek, sud jarayonida taraflarning dalillarni to'plash va taqdim etishda teng huquqlarga ega bo'lishini nazarda tutuvchi tortishuv tamoyilini ham ro'yobga chiqaradi. Shu sababli, malakali yuridik yordam olish huquqining muhim elementlaridan biri advokatlik tekshiruvi instituti hisoblanadi. Bu institut advokatga ishonch bildiruvchining huquqiy pozitsiyasini asoslash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rab olish, qabul qilish, saqlash, baholash va hech qanday to'siqsiz taqdim etish vakolatlarini beradi.

Sud hujjatlarini tegishlilik va maqbullik mezonlariga javob beradigan ishonchli ma'lumotlar bilan asoslash zarurligi haqidagi talab tobora ustuvor bo'lib borayotgan huquqni qo'llash amaliyotining rivojlanishi va advokatning yuridik isbotlashdagi rolini o'rganishga qo'shimcha qiziqish uyg'otmoqda. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi "advokatni jalb qilishning o'zi ayblanuvchiga ko'rsatilishi mumkin bo'lgan yordamning samaradorligini

ta'minlamaydi" deb ta'kidlab, 2017-yilda "Dalillarni taqdim etish imkoniyati"ni faol huquqiy himoyaning zaruriy tarkibiy qismi sifatida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tgan.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni o'tkazish va ishni sudda ko'rib chiqish chog'ida yoki ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqayotgan organlarda va boshqa vakolatli organlarda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ish yoki jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek albatta baholanishi lozim bo'lgan dalillarni to'plash va taqdim etish¹ huquqiga ega hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 87-moddasi 2-qismiga asosan himoyachi jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va taqdim etishga haqli² hisoblanib, dalillarga ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish; davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar kabilar kiradi. Bunga ko'ra milliy qonunchiligimizga asosan advokat dalillarni to'plash huquqiga ega hisoblansada lekin advokatlik tekshiruvini o'tkazolmaydi va qonchilikka mazkur atama hali kiritilmagan. O'zi aslida advokatlik tekshiruvi nima degan savol tug'ilishi mumkin?

E. G. Martinchikning ta'kidlashicha, "advokatlik tekshiruvi ... jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha ish yuritishning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi, dastlabki tergovning yangi turi bo'lib, u mavjud surishtiruv va dastlabki tergov shakllarini uyg'un ravishda to'ldiradi³. Shuningdek, "E.G. Martynchik" advokatlik tergoviga quyidagicha ta'rif bergan: "Advokatlik tergovi — bu qonunga asoslangan, huquqiy asoslarga tayanadigan, advokat tomonidan jinoyat ishi bo'yicha sudgacha bo'lgan bosqichda, himoyasi ostidagi shaxs yoki ishonch bildirgan shaxs manfaatlarini ko'zlab, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ahamiyatli bo'lgan dalillar va holatlarni aniqlash, belgilash va mustahkamlash maqsadida amalga oshiriladigan ommaviy-huquqiy faoliyat turidir."⁴

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi va "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda bunday pozitsiyani asoslash uchun quyidagi qoidalari keltirilgan. Birinchidan, jinoyat protsessi o'zining barcha bosqichlarida tortishuvli hisoblanadi va tortishuv tomonlarning teng huquqliligini taqozo etadi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining Maxsus qismi normalari dastlabki tergovning (bahssiz) xususiyatini saqlab qolgan. Sababi, tergovchi, surishtiruvchi, prokuror ishning to'la huquqli "xo'jayinlari" bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Himoyachi ular bilan protsessning teng huquqli ishtirokchisiga aylanmagan va eng muhimi - ayblov va himoya o'rtasidagi qarama-qarshilik ustida doimiy ishlaydigan sud - ularning nizolarida hakam paydo bo'lmagan. Shu sababli, jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan ish yurituvda advokatlik tekshiruvining asosi sifatida taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi mavjud emas. Bunda Jinoyat-protsessual kodeksi bilan himoyachiga o'zining dalillarni "to'plash" imkoniyatlarini belgilash advokatni tergovchi va surishtiruvchi kabi dalillarni to'plash subyektiga aylantirmaydi. Bunda birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan dalil turlari orasida himoyachi tomonidan shaxsni so'roq qilish ham,

¹ O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997

² O'zbekiston Respublikasining 1995 yildagi «Jinoyat-protsessual kodeksi»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995

³ Адвокатское расследование в уголовном процессе. Теоретико- методологические основы доктрины адвокатского расследования : учеб. пособие. М., 2012. С. 121.

⁴ См.: Мартычик Е.Г. Адвокатское расследование в уголовном процессе, 2009. С. 91, 115–126.

advokat so'rovi bo'yicha olingan hujjatlar ham mavjud emas. Mutaxassis xulosasi mavjud, ammo u bila turib yolg'on xulosa berganligi uchun mutaxassisning jinoiy javobgarligi yo'qligi sababli amaliyotda to'liq bo'lmagan dalil sifatida baholanadi. Ikkinchidan, himoyachi tomonidan to'plangan barcha materiallar jinoyat ishiga, shu bilan birga o'zining (advokatning) ishiga emas, balki dastlabki tergov organlarining ish yurituvdagi ishga qo'shib qo'yilishi kerak. Biroq, bunda surishtiruvchi, tergovchi advokatga har qanday iltimosnomani qanoatlantirishni rad etishga haqli hisoblanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, advokatlik tekshiruvi konsepsiyasi nafaqat jinoyat-protsessual qonun hujjatlari qoidalariga asoslanmagan, balki jinoyat sud ish yurituv tabiatiga ham mos kelmaydi. Advokat tekshiruvi konsepsiyasining asossizligi ildizlari jinoyat-protsessual huquqi shakllanishining tortishuv va dalillarni to'plash institutlariga qaraganda chuqurroq qatlamlarida yotadi. Ma'lumki, G'arbiy Yevropa davlatlarining jinoyat protsessi rivojlangan. Angliya fuqarosi uchun azaldan yuridik nizoni hal qilish uning shaxsiy ishi bo'lib kelgan. Fuqarolik-huquqiy nizo bo'yicha ham, jinoyat munosabati bilan ham shaxs mustaqil ravishda o'z foydasiga dalillar to'plagan va sudga murojaat qilgan, sud esa vaziyatni tomonlar ishtirokida, ya'ni tortishuv asosida hal qilgan. Bunday protsess xususiy da'vo (yoki xususiy ayblov) protsessi deb atalib, u shaklan tortishuv protsessidan boshqa narsa bo'lishi mumkin emas edi.

Amerika tajribasi.

AQSHda advokatlik tekshiruvi "criminal defense investigation" deb ataladi va bu faoliyat AQSH Konstitutsiyaning 6-tuzatishiga asoslangan bo'lib, bunda jinoyat ishida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shaxsga malakali himoyachi yollash va adolatli sudlovda ishtirok etish huquqi kafolatlangan. Shu bois advokatlar jinoyat ishlarida mustaqil tergov o'tkazish huquqiga ega hisoblanadi. Shuningdek AQSHda dastlabki tergov jarayonida discovery tizimi mavjud bo'lib, bunda prokurorlar va himoyachilar o'zaro o'zlari tomondan to'plangan dalillarni almashishadi. Bu orqali advokat prokurorlar tomonidan aniqlangan dalillarni baholaydi va advokat ushbu dalillarni rad etishi yoki qarshi dalillar to'plashi mumkin bo'ladi. Dalillarni yig'ishda esa advokat guvohlarni so'roq qilish huquqiga ega hisoblanadi.

Buyuk Britaniya tajribasi.

Buyuk Britaniyada jinoyat ishlarida advokatlar – "solicitor" va "barrister"lar mustaqil tarzda tergov o'tkazish huquqiga ega. Bu faoliyat "pre-trial preparation" doirasida amalga oshiriladi. Advokatlar guvohlar bilan mustaqil suhbatlar o'tkazishi, ekspertlarni jalb qilishi, voqea tafsilotlarini qayta o'rganishi mumkin. Bu orqali ular sudga prokuratura tomonidan keltirilgan dalillarga qarshi dalillarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, prokuror o'zi tomonidan to'plagan dalillarni advokatga ko'rsatishga majbur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi normalariga asosan advokatning dalillarni to'plash va taqdim etish faoliyati sohasidagi tarmoqli tartibga solishning yetarli darajada mukammal bo'lmaganligi, ya'ni uning tegishli vakolatlarini amalga oshirish bo'yicha "tayyor xulq-atvor modellari" mavjud emasligi, advokat surishtiruvi (advokatlik tergovini)ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida asoslangan umumiy huquqiy prinsiplarning xususiy ifodasi sifatida qarashni oqlaydi. Jinoyat protsessida tortishuv talabining amal qilish doirasini nafaqat sud bosqichida balki sudgacha bo'lgan bosqichda kengaytirish, ya'ni uni sudgacha bo'lgan ish yurituviga ham tatbiq etish faqat jinoyat protsessimizni tubdan o'zgartirish orqali mumkin bo'ladi. Buning uchun jinoiy ta'qibning ommaviy yo'nalishidan voz kechib, jinoyat ishlarini hal etishning xususiy da'vo tartibiga o'tish zarur. Masalan, V. Yu.

Melnikov shunday yozadi: "Angliya-Amerika jarayonida sudgacha bo'lgan jarayondan olingan ma'lumotlar himoyachiga tergovchi bilan parallel ravishda tergov o'tkazish, "xususiy tergov harakatlarini" amalga oshirish huquqini berish to'g'risidagi takliflarning asosini tashkil etadi⁵".

Xulosa va takliflar.

1. Jinoyat-protsessual kodeksga advokatga mustaqil tergov o'tkazish huquqini mustahkamlovchi normalarni kiritish. Bunga sabab, hozirgi kunda jinoyat-protsessining sudgacha bo'lgan bosqichida xususan dastlabki tergovda advokatura instituti bilan tergov organlarining maqomi amalda bir xil emasligi. Bunda advokat Jinoyat-protsessual kodeksiga asosan faqatgina dalillarni to'plash vakolatiga ega hisoblanib, ularni tekshirish yoki baholash vakolatiga ega emas va u tomonidan to'plangan barcha dalillar jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi

2-qismiga asosan surushtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan tekshirilib, jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi. Bu holat esa bevosida himoyachining himoyasi ostidagi shaxsning huquq va manfaatlariga putur yetishiga olib keladi. Sababi ayblov tomon gumon qilinuvchi, ayblanuvchining himoyachisi tomonidan to'plangan dalillarni tekshirib ishga qo'shib qo'yadigan bo'lsa jinoyat ishi bir tomonlama bo'lib qoladi va bunda tomonlar o'rtasida tortishuv va teng huquqlilik masalalari yo'qoladi.

2. Advokat himoyachi tomonidan to'plangan barcha dalillar faqat sudga taqdim etilishi kerak. Bunga sabab, yuqorid aytilganidek, jinoyat protsessida tomonlarning tortishuvchaligini va ularning teng huquqliligini kafolatlash uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchining himoyachisi o'zi tomonidan to'plangan jamiki dalillarni sudga taqdim etishi lozim. Ushbu vaziyatda advokat tomonidan to'plangan dalillarning faqatgina sudga tekshirilib baholanishi, jinoyat protsessining bir tomonlama amalga oshirilishi oldini oladi va advokatning haqiqatda mustaqiligini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Advokat dastlabki tergov yakunlari bo'yicha himoya xulosasi (himoya akti) tuzishi lozim. Jinoyat-protsessual kodeksi talablariga ko'ra surushtiruvchi dastlabki tergov yakuni bo'yicha ayblov dalolatnomasi, tergovchi va prokuror esa ayblov xulosasi tuzadi va dastlabki tergov yakunida mazkur hujjat bilan ayblanuvchi va uning himoyachisini tanishtiradi. Va mazkur hujjatni sudga yuboradi. Yuqoridagi taklifga asosan, himoyachi ham o'zi tomonidan to'plangan barcha hujjatlarni yig'ib, ish yakuni bo'yicha himoya xulosasi tuzib, mazkur himoya xulosasi bilan surushtiruvchi, tergovchi va prokurorni shuningdek jabrlanuvchi tomonga tanishtirib, ushbu hujjatni sudga taqdim etishi lozim. Shunday qilib biz nafaqat sud bosqichida AVVBbalki sudga qadar ish yuritishda ham odillik tamoyillarini tadbiq eta olishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat

1. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997;
2. Об утверждении Положения об адвокатуре РСФСР : закон РСФСР от 20 ноября 1980 г. //Ведомости Верховного Совета РСФСР. 1980. № 48.
3. O'zbekiston Respublikasining 1995 yildagi «Jinoyat-protsessual kodeksi»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995;
4. Адвокатское расследование в уголовном процессе. Теоретико- методологические

⁵ Мельников В. Ю. Необходимо ли возвращаться к вопросу адвокатского расследования? // Адвокатская практика. 2015. № 4. С. 3–8.

- основы доктрины адвокатского расследования : учеб. пособие. М., 2012. С. 121;
5. Мартынчик Е.Г. Адвокатское расследование в уголовном процессе, 2009. С. 91, 115–126.
6. Мельников В. Ю. Необходимо ли возвращаться к вопросу адвокатского расследования? // Адвокатская практика. 2015. № 4. С. 3–8.